

**MEDIA MAKON VA RAQAMLI AXBOROT TIZIMLARI VOSITASIDA
JAMIYATDA SIYOSIY TAFAKKURNI YUKSALTIRISH USULLARI.**

Bahodir ESHBEKOV,

O'zbekiston jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD

E-mail: bahodireshbekov727@gmail.com

Media makon xususida gap ketar ekan, avvalo bu soʻz nimani anglatishi xususida ham qisqacha fikr yuritish lozim. Bu kategoriya atrofida jahonning turli media maydonlarida turlicha fikr-mulohaza, bahs-munozaralar borligini aytilish oʻrinli.

Media makon - ommaviy axborot vositalari matnlari bilan ifodalangan gʻoyalar, mavzular, fikrlar va boshqa nomoddiy obyektlar toʻplami boʻlib, uning muhimligi, turli auditoriya guruhlar uchun ahamiyati, tezkorligi, dolzarbligi, koʻp talqinlarga ochiqligidir. “Media makonning vazifalar va mas’uliyat OAV mutaxassislari bosma va elektron ommaviy axborot vositalari sohasida boshqaruv vazifalarini bajaradilar va bosma ommaviy axborot vositalari, kino, radio, televideniye yoki Internet uchun media loyihalarni” amalga oshiradilar. Ular radio va televideniyelar tahririyatlarida matnlar, qoʻlyozmalar va skriptlarni tekshiradi, tahrir qiladi yoki yozadi.

Eʼtiborli jihati shundaki, zamonaviy media maydon mukammala axborot texnologiyalari asosida faoliyat olib boradi. Ulardan biri raqamli texnologiyalardir. Raqamli texnologiyalar - maʼlum bir ketma-ketlik va chastotalarda kodli impulslarni yozish uchun qoʻllaniladigan elektron hisoblash mashinalaridan foydalaniladigan texnologiyalar.

“Oʻzbekiston 2000-yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Jumladan, “2013-2020-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi

bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan".

"Xususan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilgach, ushbu sohada, shuningdek, davlat boshqaruvida yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Natijada, 2022-yilning yanvar oyi holatiga ko'ra, davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo'lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 307 ga yetdi hamda elektron davlat xizmatlaridan 1,3 milliondan ortiq fuqaro foydalangan. Shu bilan birga, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa joriy yil boshida 27,2 millionga yetgan".

"O'tgan davr mobaynida respublikda AKT tizimlari va raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan salmoqli investitsiyalar jalb etildi. Natijada, davlat statistika qo'mitasi qayd etganidek, 2017–2021-yillarda axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymat ikki baravardan ortiq o'sib, 2021-yil yakunida 11,8 trln so'mga (1 mlrd AQSH dollaridan ziyod) yetdi. Shuningdek, IT-parklar faoliyati yo'lga qo'yilganidan buyon sohadagi eksport hajmi qariyb 50 baravar oshib, 46 mln AQSH dollariga yetdi; parkning doimiy rezidentlari soni 147 tadan 500 tagacha ko'paydi, 300 dan ziyod yangi kompaniya faoliyati boshlandi va 8,5 ming atrofida yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlari yaratildi. Hozirgi kunda IT-parklarda 11 mingdan ortiq yosh mutaxassislar faoliyat yuritmoqda". Bu ko'rsatkichlar raqamli iqtisodiyot infratuzilmasining institutsional xususiyat kasb etib, innovatsion faollik, eksportbop xizmatlar va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirayotganini tasdiqlaydi.

2017-yildan buyon mamlakatimizda optik tolali aloqa infratuzilmasi jadal kengaydi: O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2022-yillar oralig'ida optik liniyalar umumiy uzunligi qariyb olti baravarga oshib, 2022-

yil yanvar xolatiga 118 ming kilometrga yetgan; shu davrda xalqaro ma'lumotlar uzatish tarmog'ining o'tkazuvchanlik quvvati ham 64,2 Gbit/sdan 1 800 Gbit/sgacha ko'tarilib, yigirma sakkiz baravar oshgan.

“Global pandemiya raqamlashtirish va raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etgani sababli, IT sohasidagi dolzarb muammolarni bartaraf etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida O'zbekistonning raqamlashtirish strategiyasi qayta ko'rib chiqilib, institutsional va texnologik jihatdan takomillashtirildi”.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5 - oktabrdagi Farmoniga asosan “Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasi, shuningdek, 2020-2022-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi”. Strategiya ikki yo'nalishli dasturni — hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni — qamrab oladi hamda raqamli infratuzilmani kengaytirish, “elektron hukumat” tizimini chuqur integratsiyalash, raqamli texnologiyalarning milliy bozorini shakllantirish va raqobatbardosh qilish, shuningdek “axborot texnologiyalari sohasida ta'lim hamda malaka oshirish tizimini zamonaviy talablar asosida jadal rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi”.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini samarali ro'yobga chiqarishning asosiy shart-sharoitlari sohani barqaror moliyalashtirish va aholining raqamli savodxonligini izchil oshirishdan iborat. “Shu munosabat bilan, hujjat talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda 2022-yil yakuniga qadar maktabgacha ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va umumta'lim” maktablarida raqamlashtirish jarayonlarini to'liq yakunlash bo'yicha zarur tashkiliy-amaliy choralarni ko'rishi belgilangan. Bu vazifalar infratuzilmani modernizatsiya qilish, axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish va kadrlar salohiyatini oshirish bilan uyg'un holda amalga oshirilishi rejalashtiriladi.

“Shuningdek, “Raqamli O'zbekiston – 2030” boshqa milliy strategik hujjatlar

va dasturlarda nazarda tutilgan vazifalar, xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha milliy vazifalar hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi".

"Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvar kuni qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish";

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini taraqqiyotning hal qiluvchi, zarur sharti sifatida qaror toptirish, milliy iqtisodiyotni jadal modernizatsiya asosida yuqori o'sish trayektoriyasiga olib chiqish, "adolat me'yorlariga tayanadigan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali inson kapitali salohiyatini kengaytirish hamda ma'naviy taraqqiyotni izchil ta'minlab, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi";

"milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish kabi 7 ta ustuvor yo'nalishlar doirasida keyingi besh yilda erishish kerak bo'lgan yuzta strategik maqsadlarni o'z ichiga oladi".

"Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyot va jamiyatning asosiy tarmoqlarini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, davlat xizmatlari, sud-huquq tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, yo'l harakati boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, bank-moliya hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlari, shuningdek milliy iqtisodiyotning boshqa bazaviy sohalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nazarda tutilgan; bu esa xizmatlarning shaffofligi va hisobdorligini oshirish, idoralararo integratsiyani kuchaytirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezkorlashtirish va umumiy samaradorlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni – *“O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.”*
2. O'zbekiston Respublikasining *“Elektron hukumat to'g'risida”* Qonuni. – Toshkent, 2015.
3. O'zbekiston Respublikasining *“Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”* Qonuni. – Toshkent, 2007.
4. Qudratxo'jayev Sh. *Siyosiy kommunikatsiyalar fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
5. Jo'rayev T. *Siyosiy fanlar nazariyasi.* – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. *Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Xayrullaev M.M. *Siyosiy tafakkur va siyosiy madaniyatning shakllanishi masalalari.* – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari jamiyati”, 2015.